



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



No5(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
1-may, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyuu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti metodistining boshqaruv funksiyalari.....	10
Qarshibayeva Dilfuza Xidirbayevna	
Texnologik mashinalar va jihozlar ta'lim yo'nalishi talabalarida kasbiy kompetensiyani shakllantirishning pedagogik qonuniyatlari va metodologik tizimini ishlab chiqish	15
Elmanov Abbas Begmat o'g'li, Mirzaumidov Asilbek Shuxratjonovich	
Katta yoshdagi guruh bolalarida o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda o'yinning roli	19
Ergasheva Farangiz Umidjon qizi, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirishning dolzarbligi.....	23
Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida inson resurslarini boshqarishda muvozanatlashgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishning nazariy asoslari	28
Gulmira Jumanova	
Nomoddiy madaniy merosning talaba-yoshlarni yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashdagi ahamiyati	33
Erboyev Suxrob Abdusalomovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalar va ularda hissiy-irodaning shakllanishi	37
Davlatova Zebo Haydarovna	
Zamonaviy oilada avlodlararo munosabatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari	40
Ochilova Farida Baxriddinovna	
Maktab va oliy ta'lim muassasalarida qizlar kitobxonligini rivojlantirish metodlari	44
Qo'chqarova Oysha Oltibayevna	
Buyuk allomalar merosidan foydalanishning metodik holati va mavjud muammolari.....	48
Sevara Mamatkarimova	
Futbol o'yinida to'pga kalla bilan zarba berish.....	53
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Использование современных инновационных методов в процессе обучения русскому языку в иноязычных группах высшего образовательного учреждения.....	56
Курбанова Шаира Исмаиловна	
Maktabgacha ta'lim mutaxassislarini tayyorlashda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ...	60
Kushakova Gulnora Egamkulovna, Muhammadiyeva Shaxzoda Sunnatilla qizi	
Boshlang'ich sinflarda musiqa mashg'ulotlari orqali o'quvchilarning kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodlari	63
Muminova Feruza Farxodovna	
Alisher Navoiy merosining yoshlar ma'naviy-estetik tarbiyasidagi ahamiyati	70
Qayumxo'jayev Botirxo'ja Ikromxo'ja o'g'li	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida amaliy topshiriqlar orqali tayanch kompetensiyalarni shakllantirish metodikasini takomillashtirish	74
Saidova Dilnoza Maripovna	
К вопросу о классификации современной антиутопии.....	78
Дмитрий Валерьевич Пупонин	
Когнитивная гибкость как фактор психологического благополучия старшеклассников в период адаптации к новым образовательным требованиям	82
Муксинова Динора Азаматовна	
Oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilida ta'lim beruvchi professor-o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini baholash: xalqaro tajribalar qiyosiy tahlili va O'zbekiston amaliyoti	87
Baxtiyarova Muniba Ne'matjon qizi	
Valeologik tarbiya asosida maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini tayyorlashda innovatsion va raqamli yondashuvlar	92
Berkinova Charos Islomovna	



Grammatik tushunchalarni o'rgatish metodikasi.....	96
N. R. Masharipova	
Umumiy o'rta ta'lim tizimini takomillashtirish va o'quvchilar bilimni baholashda xorijiy tajribalardan foydalanish finlyandiya ta'lim tizimi misolida.....	99
Obidova Muqaddas Ro'ziqulovna	
The Difference Between Androgogy and Pedagogy.....	106
Pardayeva Aziza Rahmatillojevna	
Elektr mashinalari fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalari.....	110
Shodiyeva Nozina Shuxrat qizi	
Umumta'lim maktablarida direktor o'rinbosarlarining aksiologik yondashuv asosida boshqaruv funksiyalari va vakolatlari hamda maktablarda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish yo'llari.....	113
Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li	
Ispan tili darslarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirish usullari	119
Tursunqulov Sanjar Dilmurod o'g'li, Shukurullayeva Feruza Dilmurodovna	
Surxondaryo viloyatida yetishtiriladigan ingichka tolali paxta navlarining qo'llanilishi	124
Ubaydullayeva Komila Bozor qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarda empatiya hissini shakllantirishning nazariy asosi	127
Xolmirzayeva Gulbahor Bahodirovna	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi	130
Raximova Dilshoda Xoliqberdiyevna	
Bo'lajak sport murabbiylarida kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish mexanizmlari	134
Sherzod Shuxratovich Boboyorov	
Oliy ta'lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlari.....	138
Sangirov Nuriddin Iriskulovich	
Bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruv kompetentligini rivojlantirishning integrativ modeli	142
Rasulova Umida Bahodir qizi	
Yashil pedagogikaning konseptual modeli va tamoyillari.....	146
Raxmatova Dilnoza Abdurashidovna	
Ta'lim jarayoni ishtirokchilarida emotsional barqarorlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari ..	149
Boymatova Munavvar Ravshan qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish samaradorligi.....	152
Lukmonova Salomat Gafurovna	
Rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimining shakl, metod va vositalari	157
Farmonova Madina Bahriddin qizi	
Innovatsion boshqaruv tizimlarida qaror qabul qilish va kommunikatsiya samaradorligi	161
Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning media savodxonligini shakllantirish metodikasi.....	167
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Maktabgacha ta'lim mutaxassisleri malakasini oshirish tizimining zamonaviy tendensiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining pedagogik ahamiyati.....	172
Qosimova Sh. N., Dusmaxamedov A. A.	
Maktab o'quvchilarida o'zini o'zi tarbiyalashni shakllantirishning pedagogik asoslari (8–9-sinflar asosida)..	177
Norxo'jayeva Lobar Nuriddin qizi	
STEAM loyihalar yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy va tanqidiy tafakkurni shakllantirish	181
Mirjamolova Moxira Abdugaffor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning pedagogik ahamiyati va metodik asoslari.....	188
Axmad Bolqiyev	

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini xalqaro baholash dasturlari asosida baholashning pedagogik asoslari.....	191
<i>Shavqiddin Burxonov</i>	
Boshlang'ich ta'limda liderlik va pedagogik menejment muammolari.....	194
<i>Pardaboyev Doston</i>	
Raqamli ta'lim muhiti: tushunchasi, strukturasi va rivojlanish tendensiyalari.....	197
<i>Kulboyeva Dilnoza Abdug'afurovna</i>	
Особенности применения графических органайзеров на практических занятиях по дисциплине “Практикум литературы народов СНГ”.....	199
<i>Татьяна Викторовна Половинкина</i>	
Historical Stages in the Study and Treatment of Scoliosis (Spinal Curvature).....	204
<i>Shermatova Mokhira Baxodir qizi</i>	
Talaba qizlarga badiiy gimnastika cho'qmori yordamida bajariladigan fundamental mashqlarni o'rgatish....	209
<i>Musharafxon Sultanova</i>	
Oliy ta'limda tarbiyaviy ishlarni tashkil etish bo'yicha xalqaro modellarning qiyosiy tahlili.....	213
<i>Ziyotova Madina</i>	
Sport mutaxassislarini tayyorlashda voleybol o'qituvchisining ko'nikmalari va uslubi	216
<i>Turg'unov Baxtiyor O'rolovich</i>	
Matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish	220
<i>Yusupova Latofat Nuriddinovna</i>	
Zamonaviy sharoitda bo'lajak o'qituvchilarda deontologik kompetentlikni rivojlantirishning innovatsion texnologiyalari	228
<i>Nasirova Nigora Baxtiyor qizi</i>	
Paraengil atletika mashg'ulotlarida individual yondashuvning ahamiyati	233
<i>Abduxoliqova Shoiraxon Akramjon qizi</i>	
Biologiya fanini o'qitishda xalq pedagogikasi elementlaridan foydalanish orqali ekologik madaniyatni rivojlantirish	239
<i>Baxrombekova Sojidxon Sherzodjon qizi</i>	
Maktab texnologik ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanishning o'quv samaradorligiga ta'siri: o'rta muddatli istiqbollar (2027–2031)	245
<i>Berdiyeva Gulnoza Rizoqulovna, Tursunov Sherzod Ziyat o'g'li, Ismatullayev Javohir Ubaydulla o'g'li</i>	
Axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali jismoniy tarbiya va sport tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	251
<i>Eryigitov Dilshod Xolboyevich</i>	
Enhancing Speaking Skills Productively in English	255
<i>J. M. Fayzullayev, G. R. Elmonova</i>	
Nutqida nuqsoni bo'lgan katta guruh bolalari bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	259
<i>Jumanova Iroda Nomozovna, Fayzullayev Sharipboy Nurillayevich</i>	
2–3 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga ijtimoiy moslashuvi: nazariy va empirik tahlil	263
<i>Klicheva Dilnoza Zulfon qizi</i>	
Inson–texnika tizimida ta'lim olayotgan talabalarda iste'dod namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari	267
<i>Kuvandikova Gulnora Gulamovna</i>	
Bo'lajak pedagoglarning mutaxassis sifatida shakllanishida xavotirlanish holatining namoyon bo'lishi.....	270
<i>Nuriddinov Rasuljon Samitjon o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlashda zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuv.....	274
<i>Nuriddinova Maysara Ikramovna, Kodirova Albina Faridovna</i>	
Talabalarda qaror qabul qilishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	279
<i>Rajabova Go'zal Zarifovna</i>	
Musobaqa oldi psixologik tayyorgarlikning tezkorlikka ta'siri.....	283
<i>Sitora Elova Axmatkulovna</i>	



Pediatriya ta'limida sun'iy intellekt – talaba uchun virtual assistent.....	287
Umarkulov Muhtorali Islomkulovich	
Bo'lajak jismoniy tarbiya mutaxassislarida jismoniy savodxonlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	290
Xakimov Xurshid Nozimovich	
Сущность и виды познавательной активности детей 5–6 лет.....	294
Джамилова Н. Н., Кудратова М. У.	
Uzluksiz ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalashning pedagogik-psixologik masalalari.....	298
Siddiqova Sanobar Xaydarovna	
Ta'lim jarayonida o'quvchilarning bilish, ijodiy faolligini oshirish.....	301
Siddiqova Sanobar Xaydarovna, Qushoqova Guzal	
Badiiy adabiyotda Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar.....	304
Tangirov A. J.	

BADIIY ADABIYOTDA IBN SINO OBRAZINING YARATILISHIDAGI O'ZIGA XOSLIKLAR

Tangirov A. J.
Dotsent, Jizzax DPI

Annotatsiya: Badiiy adabiyotda tarixiy voqelik va tarixiy shaxs xarakteri yaratish murakkab jarayon bo'lib, bunda ijodkorlar badiiy asar yaratishda har bir voqea va hodisaga xos uslublar yaratadi va janrlarga murojaat qiladilar. Bunga birgina Sharqning buyuk allomasi Ibn Sino obrazini yaratishda qo'llanilgan rang-barang jihatlar orqali ishonch hosil qilish mumkin.

Kalit so'zlar: anoxronizm, doston, hakim, Ibn Sino, xarakter, tipiklashtirish, umumlashtirish, afsona, rivoyat, Afshona, Ray, Juzjoniy, Mo'min Qanoat, Abdulla Oripov, tibbiyot ilmi, o'limning davosi.

Abstract: In fiction, the creation of historical reality and the character of a historical figure is a complex process in which authors employ various stylistic devices appropriate to each event and phenomenon and refer to different genres. This can be illustrated by the example of the image of the great Eastern scholar Ibn Sina, in whose portrayal a wide range of artistic techniques has been applied.

Key words: anachronism, dastan, hakim, Ibn Sina, character, typification, generalization, legend, narrative, Afshona, Ray, Juzjani, Mumin Kanoat, Abdulla Oripov, medical science, cure for death.

Аннотация: В художественной литературе создание исторической реальности и характера исторической личности является сложным процессом, при котором авторы при создании художественного произведения используют различные стилистические приёмы, соответствующие каждому событию и явлению, и обращаются к различным жанрам. Это можно подтвердить на примере образа великого мыслителя Востока Ибн Сины, при создании которого были использованы разнообразные художественные приёмы.

Ключевые слова: анахронизм, дастан, хаким, Ибн Сина, характер, типизация, обобщение, легенда, предание, Афшона, Рей, Джузджани, Мумин Каноат, Абдулла Орипов, медицинская наука, лекарство от смерти.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, yer yuzi tibbiyot ilmining sultoni, bobomiz Abu Ali Ibn Sino buyuk hakim, faylasuf, tilshunos, adabiyotshunos va falakshunos bo'lib, u hayotligi vaqtidayoq el orasida ma'lum va mashhur insonga aylangan edi. Shu boisdanoq, uning o'zi hayotligidayoq u haqda xalq orasida turli esdaliklar, rivoyatu afsonalar yaratilgan. Shu boisdan u haqda yaratilgan asarlar ham bir-biridan tubdan farq qiladi va alohida o'rganishni taqozo qiladi.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, Ibn Sino haqidagi barcha badiiy, badiiy-publitsistik asarlarda asosan ikki jihat ko'zga tashlanadi:

Birinchidan, Ibn Sino haqidagi asarlarning aksariyati xotiralar, esdaliklar va alloma haqidagi taassurotlardan iborat. Abu Ubayd Juzjoniy boshlab bergan bu an'ana XX asrda yaratilgan barcha yozma asarlarda ham saqlanib qoldi va takomillasha bordi. A. Irisovning "Abu Ali Ibn Sino", S. Ulug'zodaning "Piri hakimoni mashriq-zamin" ("Sharq hakimlarining piri") tarixiy-publitsistik risolalari, O. Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani, Abdulla Oripovning "Hakim va ajal" dostoni, S. Ulug'zodaning "Ibn Sinoning yoshligi" dramasi va boshqa qator asarlar asosan ana shu toifadagi asarlar hisoblanadi.

Ikkinchi guruhi esa Ibn Sino haqidagi afsona va rivoyat kabi xalq og'zaki ijodi materiallaridir. Xalq orasida mavjud bo'lgan "Ibn Sino va ayol", "Ibn Sino va o'lim davosi" kabi o'nlab afsona va rivoyatlarda Ibn Sino xarakteriga xos xislatlar o'z aksini topgan.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tojik shoiri Mo'min Qanoat ham, o'zbek shoiri Abdulla Oripov ham o'z dostonlarida Ibn Sino obrazi va xarakterini shakllantiruvchi ana shu ikki xislatdan ustalik bilan foydalanadilar. M. Qanoat o'zining shu mavzudagi "Sino beshigi" dostonini bevosita asar qahramonining o'zi haqidagi xotiralari, ko'rgan-kechirganlari haqidagi esdaliklari asosida yaratgan bo'lsa, A. Oripov "Hakim va ajal" dostonida alloma xarakterini yaratishda ikkinchi yo'nalish – xalq rivoyatlari hamda afsonalariga tayanadi.

M. Qanoatning "Sino beshigi" dostoni bir qarashda buyuk alloma hayoti va faoliyati haqidagi tarixiy-biografik asarni eslatadi. Asarda Ibn Sino hayoti va faoliyati bilan bog'liq sanalarning, voqealarning qat'iy xronologik tartibiga amal qilingan.

Asar syujeti bevosita Buxoro yaqinida joylashgan Afshona qishlog'idagi Sitorabonu xonadonida yosh go'da-kning dunyoga kelishi bilan boshlanadi. Kunlardan bir kuni Buxoro amiri Nuh ibn Mansur betob bo'lib qoladi. Yoshgina Husayn uni davolaydi. Buning evaziga esa u amir kutubxonasiga kirib ishlash baxtiga muvassar bo'ladi. Qoraxoniylar Buxoroni bosib olgach, Nuh Somoniy taxtdan ag'dariladi. Husayn esa ukasi Mahmud bilan birga Buxoroni tark etadi va Xorazmga boradi. Xorazmda u Al-Ma'mun saroyi qoshidagi ilm ahllari davrasidan joy oladi. Abu Nosir Iroqiy, Abusaid Masihiy, Abu Rayhon Beruniy kabilari bilan birga faoliyat ko'rsatadi. Ular bilan ilmiy bahs yuritadi. G'azna hukmdori Mahmud G'aznaviy Ibn Sino kabi olimlarning o'z xizmatiga yuborilishini so'rab, Al-Ma'munga talabnoma yuboradi. Qarshi turishga kuchi yetmasligini sezgan Xorazm hukmdori Ibn Sino va boshqa olimlarga G'aznaga borishlari kerakligini aytadi. Olimlar bundan bosh tortadilar. Ibn Sino ham Xorazmdan yashirinchilik chiqib, Nishopurga keladi. Nishopurda u tasavvuf vakillaridan biri Shayx Abusaid Mayxoniy bilan uchrashadi va u bilan bahslashadi. Shundan so'ng u Juzjonga keladi. Juzjoniy bilan tanishadi va bir umrga do'stlashadi.

Zamonasining mashhur davlatlaridan biri bo'lgan Rayga boradi. U yerda Ibn Sino podshoh Saida huzurida bo'ladi va uning iltimosiga ko'ra podshohning aqli zaif o'g'li Majiduddavlani davolaydi. Sog'aygan Majiduddavla esa onasi taxtini egallaydi. Kunlarning birida uning boshqaruv davrida isyon ko'tariladi. U esa ko'tarilgan isyonni bostirish uchun Mahmud G'aznaviyga iltimosnoma yuboradi. G'aznaviy esa nafaqat isyonni tinchitadi, balki Majiduddavlaning o'zini ham asir oladi. Mahmud G'aznaviyning xushlamagan Ibn Sino bu yerni ham tark etadi va Hamadonga – podshoh Shamsuddavla xizmatiga keladi. Uning qulanj kasalligi bor edi. Uning kasalligini davolaydi va shu yo'l bilan vazir lavozimiga tayinlanadi. Yurtning obodonchiligi uchun tinmay mehnat qiladi. Shamsuddavla vafot etib, taxt uning o'g'li Samouddavla qo'lga o'tgach, Ibn Sino uning xizmatida bo'lishdan bosh tortadi. Shunda Isfaxon hokimi Hamadonni bosib oladi. Ibn Sino ham Isfaxonga keladi.

Isfaxonda Ibn Sino sermazzmun ijod qiladi. Qator asarlar yaratadi. Mahmud G'aznaviyning o'g'li Ma'sud Isfaxonga hujum qilib, Ibn Sino kutubxonasining kulini ko'kka sovuradi. Ko'plab asarlarini G'aznaga olib ketadi. Asar syujeti Ibn Sinoning Hamadonda vafot etganligi haqidagi lirik qahramonning qarashlari bilan nihoyasiga yetadi. Bir qarashda asar syujeti rivoji tarixiy voqealikning quruq talqinidan farqi yo'qdek ko'rinadi. Lekin dostonda shoir mazkur voqealarning oddiy talqinini berishga intilmaydi, balki o'sha tarixiy voqealik zamiridan alloma xarakteriga xos xislatlarni qidirib topishga harakat qiladi. Masalan, dostonda ta'kidlanishicha, Nuh Somoniy og'ir xastalanadi. Uni davolash uchun barcha tabiblar urinib ko'radi, lekin buning davosini topa olmaydi. Shunda Ibn Sinoni chaqirib keladilar. Ibn Sino amirning kasaliga davo topadi. Amir Ibn Sinodan evaziga nima olishini so'raydi. Ibn Sino esa bunga javoban shunday deydi:

... "Ey amirim, shod bo'lurdim shu qadar,
Darvishdek o'tgan bo'lsam shoh sinovidan agar.
Shu oliy in'om yetar, bas.
Menda yo'q o'zga havas.
Jahon mollari ichra ilmu donish bozorim,
Ruxsat et, ilm ganjiga – men shuning talabgori".

Shu tariqa Ibn Sino amir kutubxonasiga kirib, mutolaa qilishga ruxsat oladi. Bu bilan kitobxon ko'z o'ngida ilmni nihoyatda qadrllovchi va uni har narsadan ustun qo'yuvchi shaxs siymosi gavdalanadi. Boshqa bir epizodda esa shoirning tarixiy voqealar asosida yirik umumlashma xulosalar yasaganligini ko'rish mumkin. Fikrimizning isboti uchun quyidagi ikki talqinni ko'zdan kechirish o'rindir: A. Qayumov o'zining "Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino" nomli tarixiy-publististik asarida amirning kasalligi, uning qayerda, qay holatda yotganligi va uning oldiga Ibn Sino qanday tashrif buyurganligini quyidagicha talqin etadi: "Husayn tabiblar bilan amir yotgan uyga kirib kelganda, bu shohona bezaklar bilan bezatilgan, qimmatbaho gilamlar, shohi ko'rpalar bilan jihozlangan uyni dimiqqan havosidan nafasi bo'g'ilib ketdi.

Amir uyning to'rida qavat-qavat atlas ko'rpalar ustida og'ir nafas olib, harakatsiz holda yotar edi. Uning yonida esa bir azayimxon zo'r berib dam solmoqda. Uy isiriq bilan to'lgan". Shu tariqa tabib amirni davolay boshlaydi. Turli dori-darmonlar berib, og'ir darddan xalos etadi. M. Qanoat esa mazkur holatning tamomila umumlashma manzarasini yaratadi:

*Keltirdilar Sinoni,
Yosh-u zukko – dononi,
Ko'rdi u bemor boshida toj shavqi-yu minoni,
U dedi: "Ey amirim, avf etu tojni ko'tar,
Kim hakim-chun bunda bir bemor o'zi basdir, yetar..."
... Amir tushdi ko'proq noiloj kin boshidan,
Shirin joni uchun u
Kechdi zarrin tojidan.
Qildi bir ishorat-la xilvatxonani xoli,
Shohona kibr-havodan koshonani xoli.
Va o'zin his etdi bemor,
Va o'zin etdi nochor...
... Shohga dedi: "Amrim agar ravondir – dardga davodir,
Buyurganim farmonday gar vojib – muddaodir".*

Agar yuqorida keltirilgan tarixiy voqelik talqinidan kitobxon ko'z o'ngida oddiy bir ko'rinish namoyon bo'lsa, poetik talqin zamirida esa chuqur mazmun yashirin yotibdi. Unda shoir tabib va kasallik oldida shohu gado barobar ekanligi haqidagi falsafiy umumlashmani beradi. Doimo farmon berishga uringan amir bu gal tabib farmonini bajarishga majbur. Shoir shohlikdan tabiblikni ustun qo'yadi. Dostonda nafaqat tarixiy voqealar talqini, balki lirik qahramonning ana shu tarixiy voqelikka va asar bosh qahramoni Ibn Sinoga munosabatining talqini ham xarakterlidir. Bunda shoir oddiy bayonchilikdan qochadi va o'tkir falsafiy mushohadalar yasaydi.

Masalan:

*Abadiy degan eding Yerni – ana muqarrar,
Aqlni nur deganding – olam undan munavvar.
Sirlar dunyosin ochib, dedingki yozar qanot,
Yechding ajal sirini...
Tilsim bo'ldi boz, hayhot.*

Asarda shoirning Ibn Sino haqidagi xotira va esdaliklardan unumli foydalanganligi asarning umumiy qurilishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Doston qurilishi aksariyat dostonlardan farq qiladi. Yuzaki qaraganda, shoir o'z maqsadini amalga oshirishda ikki qahramon qarashlaridan foydalangandek ko'rinadi. Bularning birinchisi lirik qahramon bo'lsa, ikkinchisi bosh qahramon – hikoyachi.

Dostonda hikoyachi, ya'ni asarning bosh qahramoni Ibn Sino o'z boshidan kechirganlarini hikoya qilib boradi. Voqealar rivojining aksariyat qismi uning o'zi haqidagi xotiralari, esdaliklari yig'indisidan iborat. Lekin bu bilan dostonda lirik qahramon voqealar rivoji talqinidan chiqib ketadi, degan xulosa kelib chiqmaydi. Asarda lirik qahramon o'z o'rnini ko'pincha bosh qahramon – hikoyachiga bo'shatib berish bilan bir qatorda, o'zi ham voqealarni rivojlantiruvchi, hikoyachining turli hikoyalarini bog'lab boruvchi va ularga o'z munosabatini bildiruvchi qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Aytish mumkinki, M. Qanoat Ibn Sino xarakterini yaratishda doston janrining barcha imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan va o'ziga xos badiiy mahoratni namoyish eta olgan. Ayniqsa, doston janri imkoniyatlarining nechog'lik boy ekanligini namoyon etgan. "Sino beshigi" dostonida bir qator epizodik xarakterdagi tarixiy shaxslar obrazlariga duch kelinadi. Ularni ham shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

Birinchi guruh: Nuh Somoniy, Ali Ma'mun, Mahmud G'aznaviy, Sayida Malika, Majiduddavla, Shamsudavla, Samouddavla, Alouddavla, Mas'ud G'aznaviy kabi amirlar va davlat boshliqlari.

Ikkinchi guruh: Beruniy, Abu Nasr Iroqiy, Abusahl Masihiy, Abu Ubayd Juzjoniy, Shayx Mayxoniy kabi olimlar, mutafakkirlar va din arboblari.

Shoir mazkur tarixiy shaxslarning epizodik obrazlarini ham bevosita bosh qahramon xarakterini yaratishga xizmat qildiradi. Bunga birgina Beruniy obrazining asarda tutgan o'rnini bilan tanishish orqali to'liq ishonch hosil qilish mumkin. Ilk bor Xorazmda uchrashib tanishgan bu ikki alloma doimo ijodiy aloqada bo'lganlar, ilm-fan sohasida bahs-munozaralar olib borganlar. Shu bois bu ikki mutafakkir siymosi nafaqat tarixiy manbalarda, balki badiiy asarlarda ham doimo birga talqin etish an'ana tusini olgan. Masalan, Odil Yoqubovning "Ko'hna



dunyo” romanida asar qahramonlari Beruniy va Ibn Sino bir-biriga xos xislatlarni biri ikkinchisi orqali ochib boradi yoki to'ldirishga xizmat qiladi. “Sino beshigi” dostonida ham ushbu an'anaga amal qilingan va epizodik karakterda bo'lsa-da, Beruniy obrazidan ham foydalanilgan.

Dostonda Beruniy obrazi Ibn Sinoga xos o'tkir mushohadalik, kuchli bilimdonlikni ochish uchun xizmat qilgan. Bunda shoir Ibn Sino va Beruniyning ilmiy bahsidan foydalangan. Beruniy turli ilmiy muammolarni o'rta tashlaydi, Ibn Sino esa har bir muammoning yechimini ustalik bilan topa boradi. Shu yo'l bilan shoir Ibn Sinoning kuchli bilim sohibi ekanligini mahorat bilan ocha boradi. Shayx Abdusaid Mayxoniy obrazi dostonga Ibn Sinoning dinga bo'lgan munosabatini ko'rsatish uchun kiritilgan. Buning uchun shoir Hakim va Shayxning mashhur muloqotidan foydalangan. Manbalarning guvohlik berishicha, bu uchrashuvdan so'ng mashhur tasavvuf shayxi va ulug' tabobat olimi bir-birlariga tan berishgan. Ibn Sino o'z shogirdlariga: “Men anglaganni Abusaid his aylar”, desa, Abusaid: “Men his aylaganni Ibn Sino idrok aylar”, degan ekan. Xullas, har ikki alloma moddiy olam va inson ma'naviy dunyosini bilishda aqliy-mantiqiy va hissiy-timsoliy yo'llarning baravar, teng huquqliligini birinchi bo'lib e'tirof etganlar. Afsuski, mazkur dialogda va boshqa ba'zi o'rinlarda Ibn Sinoning dinga bo'lgan munosabati o'zining haqqoniy talqinini topmagan. Ba'zi o'rinlarda turg'unlik yillarining ta'siri o'laroq, buyuk Hakim dahriy sifatida tasvirlanadi. Dostonda Ibn Sino hatto Xudo bilan bahslashadi va uni fosh qilishga harakat qiladi. Holbuki, xuddi shu davrda yaratilgan A. Oripovning “Hakim va Ajal” dostonida Ibn Sinoning dinga munosabati o'zining birmuncha haqqoniy ifodasini topgan. Shoir bu munosabatni chuqurlashtirmaydi ham (davr bunga imkon bermasdi – A. T.), o'z navbatida, soxtalashtirmaydi ham (tarixiy haqiqatni buzishni istamaydi – A. T.). Dostonda Hakim Xudoga shak keltirishdan doimo cho'chiydi, o'zini juda ehtiyotkor tutadi. U Xudoni barcha ne'matlarning yaratuvchisi deb biladi va har zarrada uning aksini ko'radi:

*Yaratishdan murod nima? Bunday chog' Hakim,
 Tavba bilan bosh egardi, keltirdim deb shak.
 Bandalarga banda ishin buyurding tokim,
 Har zarrada o'zing borsan, o'zing bor, beshak.*

Hakim ham shak-shubhasiz Haqqa intiladi. Lekin u bevosita hayotiy muammolarni yechish orqaligina, qiyinchiliklarni yengish yo'li bilan Haqqa yetishish mumkin, deb hisoblaydi:

*... Gar ajalga davo topsam, yetardim Haqqa,
 Yechilardi, derdi Hakim, barcha savollar.*

Ko'rinib turibdiki, Sho'ro davrida ham barcha ijodkorlar birdek dinga qarshi borishmagan, o'sha zamonlarda ham A. Oripovdek mard adiblar bo'lgan. A. Oripov esa Abu Ali ibn Sino xarakterini yaratishda tamomila o'zgacha yo'l tutgan. U M. Qanoat kabi Ibn Sino faoliyatining to'liq manzarasini yaratishga harakat qilmaydi. Sho'irni Ibn Sinoning tabiqligi va uning vafoti bilan bog'liq voqealar ko'proq qiziqtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Ibn Sino o'z hayoti davomida ko'plab shogirdlar tayyorlaydi, do'stlar orttiradi. Lekin ana shu do'stu shogirdlarning barchasi ham unga vafo qilavermaydi. Ularning orasida xiyonatkorlari, munofiqlari ham uchrab turadi. Ana shunday xiyonatkorlardan biri – allomaning hamadonlik Ibrohim nomli shogirdi hisoblanadi. Ibrohim Ibn Sinoning pinjiga kirib olib, uning boshiga ko'plab kulfatlar keltiradi. Tarixiy manbalarda Ibn Sinoning o'limiga ham shogirdlarning xiyonati sabab bo'lganligiga ishoralar mavjud. Ibn Sino ancha yillar qulanj kasalligi bilan og'rib, o'zini o'zi davolab yuradi. O'zini o'zi huqna qiladi. Lekin Hakimning kasali tobora kuchaya boradi va oqibatda tutqanoq kasaliga muhtalo bo'ladi. “Bir kun, – deydi al-Juzjoniy, – huqna qiladigan narsa ichiga ikki donakdan karafs (selderey) urug'ini aralashtirishni buyuradi (Ibn Sino – A.T.). Bu bilan ichidagi yellarini haydamoqchi edi. Uni davolayotgan tabiblardan biri karafs urug'idan besh dirham solib yuboribdi. Buni u ataylab qildimi yo yanglishdimi, men bilolmadim, chunki men bu ish ustida bo'lmagan edim.

Shu urug'ning o'tkirligidan ichak shilinishi zo'rayib ketdi. Tutqanoqqa qarshi mitridat dorisini ichar edi. Xizmatkorlardan biri (mitridatga) ko'proq afyun qo'shib bergan va Shayx uni ichgan. Buning sababi shu ediki, ular Shayxning ko'p moliga xiyonat qilgan bo'lib, o'z qilmishlarining oqibatidan qo'rqr va shuning uchun uning o'limini kutgan edilar”. Ibn Sinoning o'limi bilan bog'liq bo'lgan bu kabi voqealar turlicha manbalarda, shuningdek, xalq og'zaki ijodi asarlarida turlicha talqin etilib kelindi. Masalan, “Ibn Sino va o'limning davosi” afsonasida u quyidagicha talqin etiladi:

Abu Ali ibn Sino o'lim davosini ham topgan emish. U o'layotgan vaqtida shogirdlaridan biriga vasiyat qilib, dori tutqazibdi. Dori qirqta idishga solib qo'yilgan ekan. Mana shu dorini, – debdi Abu Ali ibn Sino, –

men o'lganimdan so'ng og'zimga tomizib turasan. Hakim o'lgandan so'ng shogirdi dorini tomizib turibdi. O'ttiz to'qqizinchi dorini tomizganda Hakim ko'zini ocha boshlabdi. Shunda shogird qirqinchi dorini yerga uloqtirib yuborgan va oqibatda Hakim tirilmay qolgan ekan. "Hakim va ajal" dostonida Abdulla Oripov mazkur rivoyatning doston janriga xos go'zal namunasini yaratadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda tarixiy voqelik va tarixiy shaxslar xarakterini yaratish murakkab jarayon bo'lib, bunda ijodkorlar nafaqat janr talablariga binoan, qolaversa qalamga olinayotgan tarixiy voqelik yoxud tarixiy shaxsning tarixda tutgan o'rni va sifatlaridan ham kelib chiqib, rang-barang usul va metodlardan foydalanadilar. Bunga birgina Ibn Sino obrazining yaratilishidagi o'ziga xosliklar orqali to'liq ishonch hosil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Ali ibn Sino. Tarjimayi holi. – T.: "Fan", 1980. – 28 b.
2. Abu Ali ibn Sino haqida afsona, rivoyatlar, hikoyatlar. – T.: "Fan" nashriyoti, 1980. – 79 b.
3. Boboyev M. Doston va hayot. – T.: 1982. – 22 b.
4. Vamberi X. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. – 96 b.
5. Zayniddinova A. Badiiy asarda fakt va to'qima. – T.: "O'zbekiston", 1980. – 117 b.
6. Karimov E. Realizm va insonni tasvirlash san'ati. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali. – 1975. – № 5. – 5–7 b.
7. Tangirov A. Of the Humanistic Ideas of Khoja Ahmad Yassavi in the Teaching of Pedagogical Sciences. International Journal of Advanced Science and Technology. – Vol. 29, No. 8 (2020). – pp. 3526–3531.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.